




O'ZBEK DOSTONCHILIK MAKTABLARI: USTOZ-SHOGIRD AN'ANASI VA IJROCHILIK MADANIYATI

Sherxonova Mohidil Shukurjon qizi

mohidilsherxanova04@gmail.com

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Filologiya fakulteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15286999>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 16-aprel 2025 yil

Ma'qullandi: 20-aprel 2025 yil

Nashr qilindi: 26-aprel 2025 yil

KEY WORDS

O'zbek xalq og'zaki ijodi, folklor, ertaklar, dostonlar, maqollar, matallar, topishmoqlar, dostonchilik maktablari, Qo'qon maktabi, Xorazm maktabi, Sherobod maktabi, Namangan maktabi, baxshilar, xalq ijodi, ma'naviy meros, ustoz-shogird an'anasi, milliy qadriyatlar, estetik tafakkur.

ABSTRACT

Mazkur maqolada o'zbek xalqining boy og'zaki ijodiy merosi – xalq ertaklari, dostonlari, afsona va rivoyatlari, maqol va matallar, topishmoqlar va lirik janrlar keng qamrovda tahlil etilgan. Ayniqsa, dostonchilik san'ati alohida e'tiborga olinib, uning xalqning tarixiy xotirasi, ma'naviy va estetik qarashlarini aks ettirishdagi o'rni yoritilgan. Maqolada Toshkent, Samarqand, Farg'ona va boshqa hududlarda shakllangan ilmiy maktablar hamda Qo'qon, Xorazm, Sherobod, Namangan kabi dostonchilik maktablarining xususiyatlari, yetuk vakillari va ularning ijrochilik an'analari tahlil qilinadi. Shuningdek, bu maktablarning xalq merosini saqlash va yoshlarga yetkazishdagi ahamiyati ko'rsatib beriladi. Maqola xalq og'zaki ijodini o'rganish, uni targ'ib etish va kelajak avlod qalbida milliy g'ururni shakllantirishda muhim ilmiy manba sifatida xizmat qiladi.

O'zbek xalq og'zaki ijodi – xalqning asrlar davomida to'plagan bilimlari, ma'naviy qadriyatlari va badiiy tafakkurining yorqin ifodasidir. Bu ijodiy meros xalq hayotining turli jabhalarini, urf-odatlarini, axloqiy va estetik qarashlarini o'zida aks ettiradi. Og'zaki ijod mahsulotlari xalq tomonidan avloddan-avlodga og'zaki shaklda yetkazilib kelinadi. Shu jihatdan u nafaqat adabiy, balki tarixiy, ijtimoiy va madaniy ahamiyatga ham egadir.

O'zbek folklori ko'p asrlar mobaynida xalq tafakkurining boyligini, yashash tarzi va orzu-umidlarini ifoda etib kelgan. Bu asarlar o'z ichiga ertaklar, dostonlar, afsona va rivoyatlar, maqollar, topishmoqlar va boshqa janrlarni qamrab oladi. Har bir janr o'ziga xos poetik qurilish va estetik vazifaga ega. Xalq ijodiyoti orqali xalqning ichki dunyosi, tafakkuri va qadriyatlari ifodalanadi.

Xalq og'zaki ijodi – xalqning ko'p asrlik hayotiy tajribasi, dunyoqarashi, orzu-intilishlari va qadriyatlarining badiiy ifodasidir. U yozma manbalarga nisbatan qadimroq va ko'proq tarixiy qatlamlarni qamrab oladi. Og'zaki ijod-xalqning o'z hayotini ifodalash, anglash va boshqalarga yetkazish uchun yaratgan badiiy vositasidir. U hamisha ijtimoiy, ma'naviy, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib kelgan.

Ma'naviy-estetik jihatdan qaralganda, og'zaki ijod:

- xalqning axloqiy me'yorlarini mustahkamlaydi;

- ijtimoiy adolat, mehnat, vatanparvarlik, jasorat, do'stlik kabi tushunchalarni targ'ib qiladi;
- estetik zavq bag'ishlaydi, badiiy tafakkurni rivojlantiradi;
- xalq tilining go'zalligi va boyligini namoyon etadi.

Shuningdek, og'zaki ijod orqali xalq madaniyati, diniy e'tiqodi, dunyoqarashi, tarixiy voqealar haqidagi tasavvurlari avloddan-avlodga yetkazilib kelgan.

O'zbek xalq og'zaki ijodi mazmuni va shakliga ko'ra quyidagi asosiy janrlarga bo'linadi:

1. Ertaklar: Xalq ertaklari o'z ichiga hayvonlar haqidagi ertaklar, sehrli ertaklar, hayotiy (maishiy) ertaklarni oladi. Ularda yaxshilik va yomonlik kurashi, donishmandlik, mehnat, halollik g'oyalari asosiy o'rin egallaydi. Mashhur ertaklar: "Zumrad va Qimmat", "Boy ila kambag'al", "Tulki va bo'ri".

2. Dostonlar: Epik hajmdagi, qofiyali-nazmiy shakldagi qahramonlik yoki muhabbat voqealarini hikoya qiluvchi asarlar. O'zbek dostonchiligi Markaziy Osiyo xalq og'zaki ijodining yirik qismidir. Mashhur dostonlar: "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Yusuf va Zulayho", "Rustamxon".

3. Rivoyat va afsonalar: Qadimgi e'tiqodlar, tarixiy shaxslar, joy nomlari bilan bog'liq xalq og'zaki hikoyalari. Ularda diniy-mistik tushunchalar, xalq e'tiqodi aks etadi. Masalan: Oqtepa afsonasi, Qizilqum rivoyati, Hazrat Buxoriy rivoyatlari.

4. Maqollar va matallar: Xalq donishmandligining ixcham va obrazli ifodasi. Ular tarbiyaviy, axloqiy, ijtimoiy mazmunga ega. Masalan: "Yurt qo'risang o'zarsan, qo'rimasang to'zarsan" [2, 8].

Xalq orasida aytiladigan maqollar bilan matallar bir-biriga o'xshab ketadi. Ikkalasi ham qisqa, mazmunli bo'ladi. Matallar ham xuddi maqollar kabi ixcham bo'ladi. Faqat farqi shundaki, matal odatda kimningdir gapida, nutqida ishlatiladi, o'zi alohida aytilganda esa to'liq ma'no bermaydi. Masalan, xalqimizda «Yaxshi gap bilan ilon inidan, yomon gap bilan qilich qinidan chiqar» degan maqol bor. Agar maqolning yarim matnini «Falonchi ilon inidan chiqadigan qilib gapirdi» tarzida qo'llasak, biz matal aytgan bo'lamiz va «Falonchi yaxshi gapirdi» ma'nosini bildiramiz. Chunki «ilon inidan chiqadigan» so'z birikmasi alohida aytilsa, mustaqil ma'no anglatmaydi. Ma'lum bo'ladiki, matal shaxs nutqini go'zallashtirish uchun xizmat qilar ekan, xolos. Maqol esa mataldan mustaqil ma'no ifodalay olish xususiyati bilan farqlanadi. [3, 204]

5. Topishmoqlar: Aqliy faollikni, fikrlashni rag'batlantiruvchi janr. Bola tarbiyasida muhim rol o'ynaydi. Masalan:

Chopsa – chopilmas,

Bo'lsa – bo'linmas,

Kessa – kesilmas,

Ko'msa – ko'milmas,

Yo'nsa – yo'nilmas (soya) [5, 68].

6. Lirik og'zaki ijod (qo'shiqlar, termalar): Muhabbat, ayriliq, tabiat, sadoqat kabi mavzularda yaratilgan. Mashhur janrlar: yalla, ashula, lapar, alla va boshqalar.

Dostonchilik – xalqning orzu-umidlari, kurashlari, sevgisi va e'tiqodlarini obrazli ifodalagan badiiy janr bo'lib, u baxshilar tomonidan og'zaki shaklda ijro etilib kelgan.

Turli hududlarda dostonchilik o'ziga xos tarzda rivojlangan bo'lib, har bir mintaqada ijro uslubi, doston repertuari va baxshilik an'analari shakllanib borgan. Shu asosda dostonchilik maktablari vujudga kelgan. Bu maktablar nafaqat og'zaki ijod namunalarini saqlab qolgan,

balki ularni rivojlantirib, yosh avlodga yetkazishda muhim rol o'ynagan. Qo'qon, Xorazm, Sherobod, Namangan (Farg'ona vodiysi) kabi maktablar ana shunday boy madaniy maktablardandir.

20-asrga kelib shaharlarda baxshi va dostonchilarga bo'lgan ehtiyoj asta-sekin kamaydi. Biroq qishloq joylarda bu qadimiy an'ana o'z hayotini davom ettirdi. Ayniqsa, Katta Farg'ona kanali, katta suv omborlari qurilishi kabi yirik xalq xo'jaligi tadbirlarida, shuningdek, bayramlarda doston aytish odat tusiga kirgan edi.

Ko'plab dostonlar alohida bir ijodkor tomonidan yaratilmagan. Ular xalq orasida og'zaki ijod orqali shakllangan epik an'analarga asoslanadi. Shu sababli, ayrim hududlarda dostonchilik maktablari vujudga kelgan.

1. Qo'qon dostonchilik maktabi

Bu maktab o'zbek dostonchilik an'alarida muhim o'rin egallaydi. Uning asoschisi Fozil Yo'ldosh o'g'li (1872–1955) bo'lib, u Yo'ldosh Bulbulning shogirdlaridan ta'lim olgan. Maktabda "Alpomish", "Yodgor", "Yusuf va Ahmad" kabi mashhur dostonlar ijro etilgan. Vakillari orasida Chini shoiri, Tovbuzar, Qurbonbek, Sultonmurod, Suvyar, Rahimbubul, Jo'ra va Yorlaqab kabi baxshilar bo'lgan.

2. Xorazm dostonchilik maktabi

Xorazm dostonchilik an'anasining yorqin vakillari – Ergash Jumanbulbul o'g'li (1868–1937) va Muhammadqul Jumamurod o'g'li Po'ltan (1874–1941). Bu hududda "Alpomish" dostonini Yakka Ahmad, Qurxon va Oyssuluv kabi baxshilar kuylagan. Xorazm baxshilari dostonlarni asosan jo'rlar bilan ijro etgan bo'lib, kuy va ohanglar katta ahamiyatga ega bo'lgan [4, 49]. Shuningdek, bu maktab vakillari nafaqat og'zaki, balki yozma tarzda ham doston matnlarini yaratishgan.

3. Sherobod dostonchilik maktabi

Sherobod maktabi asoschilaridan biri Sherazar Beknazar o'g'li bo'lgan. Ustoz-shogird an'anasi asosida bu maktabda Avliyoqul o'g'li, Umir Safar o'g'li, Murodniyoz, Ahmad baxshi, Nuro'li va Muhammad baxshi kabi dostonchilar yetishib chiqqan. Sherobodda dostonlar odatda 3-5 kishilik guruh bo'lib ijro etiladi: bir baxshi boshlaydi, qolganlari unga jo'r bo'ladi.

4. Farg'ona vodiysi (Namangan) dostonchilik maktabi

Bu maktabning asosiy markazi Ko'libuqon qishlog'i hisoblanadi. Cho'tboy baxshi va uning otasi Mahmud buva – ushbu hududning mashhur baxshilaridan. XIX asrda Beqjon baxshi Samarqandning Miyonqol qishlog'idan Ko'libuqonga kelib, bu yerda dostonchilik an'anasini davom ettirgan.

Sayram hududida "Alpomish", "Yodgor", "Yusuf va Zulayho" kabi dostonlar mashhur bo'lgan. Chust hududida Umurzoq baxshi, Abduvohid shoiri, Anor baxshi, Ibrohim Otaboyev faoliyat yuritgan. Arig'on hududida Qunduz va Umid baxshilar tanilgan. Go'ro'von hududida Husan baxshi Rajab o'g'li mashhur bo'lgan.

5. Go'ro'von dostonchilik markazi

Go'ro'von markazi Namangan viloyatining Uchqo'rg'on va Norin tumanlarida joylashgan. Bu hudud Andijon viloyatining Baliqchi tumani bilan ham bog'liq. Bu yerda ayniqsa "Alpomish" dostoni mashhur bo'lib, uni turli baxshilar katta mahorat bilan ijro etgan.

Namangan dostonchilik maktablari:

Namangan viloyati o'zbek dostonchilik an'analari rivoj topgan muhim hududlardan biridir. Bu hududda bir necha mashhur dostonchilik maktablari shakllangan bo'lib, ular o'ziga xos ijrochilik uslubi, kuylash an'analari va mashhur baxshilari bilan ajralib turadi.

- Ko'libuqon dostonchilik markazi: Namangandagi eng mashhur dostonchilik markazlaridan biri Ko'libuqon qishlog'i bo'lib, bu yer dostonchilar maktabining yirik markazi sifatida tanilgan. Ushbu markaz Cho'tboy baxshi sulolasiga mansub. Cho'tboy baxshining o'g'li Mahmud buva Cho'tboyev va uning otasi mashhur sanovchi bo'lib, ular dostonlarni rivoyat qilishda katta tajribaga ega bo'lgan. XIX asrda Samarqand viloyati Miyonqol qishlog'idan kelgan Beqjon baxshi bu markazga asos solgan [1, 357]. 1970–80-yillarda bu yerda doston kuylashga qiziqqan yoshlarga baxshilik sir-asrorlari o'rgatilgan.
- Sayram dostonchilik markazi: Sayram Namangan viloyatining To'raqo'rg'on tumaniga qarashli bo'lib, bu yerda ham dostonchilik keng tarqalgan. Sayram baxshilari orasida Alpomish, Yusuf va Zulayho, Go'ro'g'lining tug'ilishi kabi mashhur dostonlar ijro qilingan. Shu hududda ijod qilgan mashhur baxshilar: Abduvohid shoiri, Anor baxshi, Ibrohim Otaboyev, Shoirilar va boshqa baxshilar.
- Arig'on dostonchilik markazi: Arig'on dostonchilik markaziga Chust tumanidagi baxshilar mansub. Bu yerda mashhur bo'lgan ijrochilar: Umurzoq baxshi, Madamin baxshi, Qunduz va Umid baxshilar. Arig'on baxshilari tomonidan "Alpomish", "Qunduz", "Yulduz" kabi dostonlar ijro etilgan.
- Go'ro'von dostonchilik markazi: Namangan viloyatining Uchqo'rg'on va Norin tumanlarida joylashgan. Ushbu markazda yashagan baxshilar bilan birga Andijon viloyatining Baliqchi tumanida yashagan shoirdan ham ta'sir olingan. Bu yerda Husan baxshi Rajab baxshi o'g'li kabi mashhur ijrochilar faoliyat yuritgan. Asosan "Alpomish" dostoni kuylangan.

O'zbek xalqining asrlar davomida shakllangan og'zaki ijodiy merosi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan bebaho boyliklardan biridir. Ayniqsa, dostonchilik san'ati xalqning ruhiy olami, tarixiy xotirasi, ijtimoiy va axloqiy qarashlarini o'zida jamlagani bilan alohida ajralib turadi. Dostonlar orqali xalq o'z qahramonlarini madh etgan, haqiqat va adolat, muhabbat va sadoqat, mardlik va fidoyilik kabi umuminsoniy qadriyatlarni avlodlarga yetkazgan. Turli hududlarda shakllangan dostonchilik maktablari esa bu ijod an'anasining mustahkam poydevori hisoblanadi. Qo'qon, Xorazm, Sherobod, Namangan kabi maktablarda ijrochilik an'analari, uslublari, kuy va ohanglar, doston repertuarlarining xilma-xilligi dostonchilik san'atining boyligini namoyon etadi. Har bir maktab o'ziga xos ijodiy muhit va ustoz-shogird an'anasi asosida shakllangan bo'lib, ular xalq orasidan chiqqan baxshi va dostonchilar orqali rivojlanib, yangi bosqichlarga ko'tarilgan. Shu jihatdan qaraganda, dostonchilik maktablari nafaqat og'zaki adabiyot namunalarini asrab qolgan, balki o'zbek xalqining tarixiy-madaniy merosini, estetik qarashlarini, urf-odat va an'alarini yangi avlodlarga yetkazishda o'ta muhim vosita bo'lib xizmat qilgan. Bugungi kunda ham bu maktablar o'rganishga, targ'ib etishga, yosh avlod qalbida milliy g'urur va madaniy ongni shakllantirishga xizmat qiladi. Xalq dostonlarini o'rganish, ularni sahnalashtirish, yoshlar orasida dostonchilik san'atini rivojlantirish orqali biz o'z ildizimizni yanada chuqurroq anglaymiz va bu orqali milliy madaniyatimizni asrab-avaylab, uni dunyo miqyosida tanitishga hissa qo'shamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "XX asr o'zbek folklorshunosligi". Antologiya. Tuzuvchilar: O. Turaboyev va boshq. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 592 b.

2. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklor. Darslik. – Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006. – 216 b.
3. Mirzayev T. va boshqalar. O'zbek folklori. Darslik. – Toshkent, 2020. – 237 b.
4. Murodova M. Folklor va etnografiya. – Toshkent: Aloqachi, 2008. – 100 b.
5. Safarov O., Jamilova B., Safarova N. Bolalar adabiyoti va folklor. – Toshkent: Turon zamin ziyo nashriyoti, 2015. – 256 b

